

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 27 419 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Qashqadaryo viloyati Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- iyul holatiga, birlik	2026- yil 1- iyul holatiga, birlik
Qashqadaryo viloyati:	24 658	27 419
G'uzor	1215	1243
Dehqonobod	946	1022
Qamashi	1575	1673
Qarshi	1894	2079
Koson	1600	1946
Kitob	1722	1932
Mirishkor	898	966
Muborak	804	932
Nishon	1168	1351
Kasbi	1118	1229
Ko'kdala	953	1325
Chiroqchi	1285	1473
Shahrisabz	1267	1330
Yakkabog'	1748	1820
Qarshi sh.	5033	5584
Shahrisabz sh.	1432	1614

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashirildi

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-iyunida 2 779 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 940 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 700 ta, sanoatda 284 ta, hamda boshqa xizmatlarda 270 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 872 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 553 ta, sanoatda 319 ta hamda boshqa xizmatlarda 202 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Qashqadaryo viloyati:	2 393	2 779
G'uzor	146	158
Dehqonobod	91	82
Qamashi	117	134
Qarshi	204	211
Koson	152	216
Kitob	119	195




Mirishkor	94	100
Muborak	77	61
Nishon	106	123
Kasbi	100	178
Ko'kdala	240	205
Chiroqchi	126	162
Shaxrisabz	108	137
Yakkabog'	164	152
Qarshi sh.	407	494
Shahrisabz sh.	142	171

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,2 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,4 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi xizmatlar sohasida – 43,1 %, sanoatda – 17,7 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 31,5 % va qurilishda – 7,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 080,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 35,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 56,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Chiroqchi tumanida (96,3%), Shahrizabz tumani (93,4%), Shahrizabz shahri (84,2 %), Ko'kdala tumani (78,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 970,2 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 73,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (95,3 %), Yakkabog' tumani (94,1 %) va Qamashi (91,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 9 327,2 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 58,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 122,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (93,5 %), Yakkabog' tumani (88,6 %) va Qamashi tumani (84,9 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 28 112,5 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Shahrisabz shahri (99,9 %), Dehqonobod tumani (99,8 %), Qamashi (99,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 13 984,6 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 94,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (99,2 %), Kasbi tumani (99,1 %), Nishon tumani (99,0 %), Dehqonobod tumani (98,9 %), Qarshi tumani (98,6 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 13 712,1 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 73,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (78,7 %), Qamashi tumani (70,1 %), Nishon tumani (70,6 %), Muborak tumani (70,5 %) va Dehqonobod tumani (70,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 114,8 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 47,9 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan

eng ko'p ulushi Kitob, Muborak, Chiroqchi, Shahrisabz tuman va Shahrisabz shaharlarida – 100,0 %, Yakkabog' tumanida – 99,4 %, G'uzor tumanida – 91,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 119,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 49,0 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qamashi tumani va Shahrisabz shahrida – 100,0 %, Yakkabog' tumanida – 99,6 %, Shahrisabz tumanida – 88,4 %, hamda Kitob tumanida – 87,6 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi, % da




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 58,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida esa 71,1 % ga yetgan yoki 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 13,1 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 33,1 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 26,9 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyunida 8,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 2,0 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 49,9 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 63,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar-iyunida 41,7 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-iyunida 35,8 % yoki 5,9 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyunida 8,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 1,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 74,8 % ni, sanoat sohasida – 73,4 % ni va xizmatlar sohasida – 73,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 38,3 %, xizmatlar sohasida – 27,0 % va sanoatda – 25,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 3,7 % ni, savdoda – 2,1 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>